

YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILM VA OLIMLIK HAQIDA

Maktuba Avezova,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18358579>

Annotatsiya. Mazkur maqolada hikmatnavislik maktabining asoschisi Ahmad Yassaviy hamda uning izdoshi Qul Ubaydiy ijodida ilm va olimlik mavzusining badiiy-falsafiy talqini tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida ikki mutafakkir hikmatlarida ilmga bo'lgan munosabat, olim shaxsiga qo'yilgan axloqiy va ma'naviy talablar qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, Qur'oni karim oyatlari va hadislarida bayon etilgan ilm va olimlik haqidagi g'oyalar Yassaviy va Ubaydiy hikmatlarida qanday aks etgani ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Yassaviy, Ubaydiy, hikmat, ilm, olim, oyat, hadis.

Аннотация. В данной статье анализируется художественно-философская интерпретация темы знания и учености в творчестве основателя школы хикматописания Ахмада Яссави и его последователя Кул Убайди. В ходе исследования на основе сравнительного анализа рассматривается отношение двух мыслителей к знанию, а также нравственно-духовные требования, предъявляемые к личности ученого. Кроме того, раскрывается, каким образом идеи о знании и учености, изложенные в аятах Священного Корана и хадисах, нашли художественное отражение в хикматах Яссави и Убайди.

Ключевые слова: Ахмад Яссави, Кул Убайди, хикмат, знание, ученый, аят, хадис.

Annotation. This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the theme of knowledge and scholarship in the works of Ahmad Yassawi, the founder of the school of hikmat writing, and his follower Qul Ubaydi. The study provides a comparative analysis of the two thinkers' attitudes toward knowledge and the moral and spiritual requirements imposed on the personality of a scholar. Furthermore, the article reveals how the ideas concerning knowledge and scholarship presented in the verses of the Holy Qur'an and the Hadiths are artistically reflected in the hikmats of Yassawi and Ubaydi.

Keywords: Ahmad Yassawi, Qul Ubaydi, hikmat, knowledge, scholar, verse, hadith.

Kirish. Tasavvuf ta'limotida ilm-ma'rifat inson ruhiy kamolotining bosh mezonlaridan biri hisoblanadi. Bu ta'limotda ilm nafaqat nazariy bilim, balki insonni axloqan poklanishga, Haqqa yaqinlashishga yetaklovchi amaliy vosita sifatida talqin etiladi. Xususan, turkiy tasavvuf adabiyotining yirik namoyondasi Ahmad Yassaviy ijodida ilm, amal va irfon bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Uning hikmatlari Qur'oni karim va hadislariga tayanilgan holda yaratilgani bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Islom manbalarida ilm olishning farz ekani, ilm egalarining jamiyatdagi o'rni va mas'uliyati haqida ko'plab oyat va hadislar mavjud. Qur'oni karimning "Nahl" surasi 3-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "U zot yeru osmonni ilmu hikmat bilan yaratdi. Mushriklarning shirkidan u zot benihoya yuksak" [1: 267-bet]. "Tavba" surasining 122-oyatida esa mo'minlarning bir qismi ilm o'rganib, boshqalarga to'g'ri yo'l ko'rsatishi lozimligi qayd etiladi. Bu g'oyalar tasavvufiy adabiyotda, xususan, hikmat janrida o'ziga xos badiiy talqinga ega bo'lgan.

Muhokama va natijalar. Ahmad Yassaviy hikmatlarining asosiy g'oyasi ham xalqni to'g'ri yo'lga irshod qilish, haq yo'lga boshlash, oyat, hadis, sunnatga tayanib ilm-u irfonni targ'ib qilish bo'lgan.

Olim ulkim, o'zi o'qub o'zi bilsa,
Rahmon Tangrim buyrug'iga amal qilsa,
Zohiridin ma'ni olib ichga solsa,
Andog' olim olim bo'lur do'stlarimo [2: 86-bet].

Yassaviyda haqiqiy olimning sifatlarini ifodalovchi bunday satrlar bot-bot uchraydi. Bir qarashda hikmatlar uslub va badiiy jihatdan biroz sodda tuyulsada, ularning zamirida ulkan ma'no aks etadi. M.F.Ko'prulizodaning fikricha, Yassaviy arab va fors tillaridagi tasavvufiy asarlarni o'qiy olmaydigan turklarga ma'rifat tarqatish va muridlariga tasavvufiy haqiqatlarni anglatish maqsadida she'r yozgan. "Ijodga bog'lanib qolmay, she'rga faqat diniy-tasavvufiy tashviqot vositasi sifatida qaragan Xoja Ahmad Yassaviyning asari, doxiliy (intrinseque) badiiy (estetik) jihatdan qaraganda oddiy ijod namunasidir" [3: 227-bet]. Lekin shu bilan birga turk olimi asrlar osha yashab kelgan bu kitobning qadr-qimmatini yuqori baholarkan, ko'plab shoirlar uchun ilhom manbai bo'lganini ham e'tirof etadi.

"Devoni hikmat"ning, umuman irfoniy adabiyotning yetakchi obrazlaridan biri olim va orifdir. Tasavvuf lug'atida olimga shunday ta'rif beriladi: "Olim – bilimli, ilm ahli. Buyuk Olooh o'z zoti, sifatleri, fe'llari va ismlarini ya'ni bularning tajalliylarini ilmu-l-yaqiyn yo'li bilan tomosha etmoq martabasiga chiqargan insonlar. Ushbu jihatlarni mushohada yo'li bilan tomosha qilganlarga orif deyiladi; zohiriy hukmlarni va shar'iy xususlarni bilib turib ham tasavvufdan begona bo'lgan bilim egalariga ham olim deyiladi. Sufiylar avom martabasida deya hisoblagan bu turdagi olimlarga ulamoyi rusum, ulamoyi zohir va ulamoyi salotin (marosimchi, shaklchi, zohirchi va davlat olimlari) nomlarini beradilar. Bularga donishmand ham deyiladi. Mutasavviflarga ko'ra, obid olimdan, orif esa obiddan baland martabadadir" [4: 238-bet].

Olimning sifatleri, oriflik maqomi haqida ko'p va xo'b so'zlagan Yassaviy olimlarni ikki turga ajratadi: jon olimi va tan olimi. Jon olimi ilohiy ishq sharobidan ichgan va Haqqa yaqin bo'lgan zotlardir.

Olim uldir, namoz o'qub toat qilsa,
Haqdin qo'rqib oxiratni g'amin yesa,
Qur'on o'qub, amal qilib yo'lg'a kirsas,
Jonu dilda Haq zikrini ayting, do'stlar [2:75-bet].

Bunday olimlar Haq yo'lida "ikki ko'zi giryon", manmanlikdan yiroq, kechayukunduz Olooh yodi-yu zikri bilan band, nafsini o'ziga bo'ysundira olgan, "holi xarob, bag'ri kabob" (Olooh uchun) zotlardir. "Zohir buzib, botil tuzgil olim bo'lsang, Ro'zi mahshar qo'lung tutgay tongla borsang..." deya uqtiradi oriflar sultoni. Chin olimlik

darajasiga yetishmoq uchun inson zohirni emas, botinni go‘zal qilmog‘i, qiyomatda mana shu ilmi unga dastak bo‘lajagini ta‘kidlaydi. Tan olimlari esa Yassaviyning nazdida:

Tan olimi zolimlarga o‘xshar ermish,
Haq Baroat oyatida xabar bermish.
Do‘zax ischra doim tinmay kuyar ermish,
Zahri Zaqqum ichar ermish do‘stlarim-o [2: 87-bet].

Baroat oyati deya shoir “Tavba” surasiga ishora qilarkan, bu kabi olimlarning oxirati qanchalar ayanchli yakun topishini “bashorat qiladi”. Olimlikning bosh sharti omil ya’ni amal qilish. Amalsiz ilm zolimlik va riyodan boshqa narsa emas. Qanchalik chuqur va cheksiz ilmi bo‘lmasin agar olim unga amal qilmas ekan, uning e’tibori yo‘qdir. Bundaylarni “ustiga kitob ortilgan eshakka o‘xsha” tilishi bejizga emas (“Jumu’a” surasi 5-oyat) [1:553-bet]. Yassaviy ham bir hikmatida omi shayxlarni dumsiz himor – eshakka qiyoslab, bundaylar xalqni yo‘ldan ozishiga sabab bo‘ladi deb o‘kinib yozarkan, “Ondoq shayxlar bahoyim(to‘rt oyoqli hayvon)dan bartar ermish” deydi [2:271-bet].

Oxirzamon olimlarining riyokorliklari, zolimligi ulug‘ purning hafsalasini pir qilgan:
Esiz olim, amal qilmay yo‘lda qolur,
O‘qub uqmay, dunyo molin qo‘lga olur....

Yoki yana bir hikmatda “Oxirzamon olimlari olim bo‘ldi, Xushomad etguchilar olim bo‘ldi” deya kuyunadi. Kitobdagi 3-hikmatda shayxul -mashoyix (A. Navoiy ta’rifi) bu mavzuni bosh planga olib chiqadi.

Oxirzamon shayxlaridin (men) so‘zloyin,
Iymon-islom bilmay shayxliq qilor ermish.
Ilm o‘rganmay, amal qilmay, ma’ni uqmay,
Oxiratda qaro yuzluk bo‘lor ermish.

XVI asrda yashab ijod etgan, Yassaviyning hikmatnavislik an‘nalaridan ilhomlanib, 240 ga yaqin hikmat bitgan Qul Ubaydiy ham ulug‘ purning g‘oyalarini davom ettirish asnosida bu janrni yanada takomillashtirish yo‘lidan bordi. Shoir hikmatlarida ham ilm, olimlik, oriflik, irfon, ma’rifat kabi mavzular anchagina.

Olim kishi ilmi bilan amal qilsa,
Rabboniyun zumrasinda doxil bo‘lur.
Ilmi bilan amal qilmas olim biling,
Nodonlarga dohil bo‘lub, johil bo‘lur [5:67-bet].

Baytda ta’riflanganidek, ilmiga amal qiluvchi olim, Robboniyun zumrasiga ya’ni guruhiga mansubdir, rabboniy olimlar sirasida, yana ham aniqrog‘i Yassaviy ta’kidlagan jon olimlardan biri sifatida Haqning marhamatiga sazovor kishidir. Ubaydiy bu hikmatni ustozini an‘anasini davom ettirib, 12 bo‘g‘inli barmoq vaznida yaratgan. Har ikkala shoirning hikmatlari zamirida ham Ali Ibn Abu Tolib (r.a) rivoyat qilgan ushbu hadis ifodasini ko‘rish mumkin: “Insonlar ikki toifadir: olimi rabboniy va najot topish uchun ilm

o'rganadigan tolib, qolganlar avom xalq bo'lib, har qanday da'vatchiga ergashib, har qanday shamolga egilaveradilar" [6: 37-bet].

Ubaydiy hikmatlarida ham ilm va amal birligi markaziy mavzu bo'lib, ilmiga amal qilgan olim rabboniy maqomga yetishi ta'kidlanadi. Shoir ilmni irfon bilan bog'lab, haqiqiy ilm qalb orqali idrok etilishini ilgari suradi. Ubaydiy ijodida badiiy ifoda nisbatan murakkabroq bo'lib, tasavvufiy ramz va ishoralar keng qo'llaniladi.

Ey tajalli tolibi, Ul tajalli qilg'ali

Ishq Turi tog'i birla Musoi Imron kerak.

Bo'lmasa irfon ne hosil ilmdin allomag'a,

Olimu allomag'a, ey do'stlar, irfon kerak [5:96-bet].

Tasavvufni, dinni, tarixni yaxshi bilmay turib bu misralar mag'zini chaqish ancha mushkul. "Tajalli(y) – g'aybdan kelgan va qalbdan zuhur etgan Haq nurlaridir [4:321-bet]. Shoir tajalli toliblariga xitob qilib, Ul (Olloh)ning zohirini anglamoq, ko'rmoq uchun Tur tog'i va Muso hamda Imron kerakligini aytib, o'sha mashhur tarixiy voqeaga ishorat qiladi. Muso Allohni o'zini ochiq ko'rsatishini iltimos qilganda, Haq taolo uning bardosh qilolmasligini aytib, toqqa o'z nurini zohir qilganda, tog' parchalanib, tuproqqa aylangandi. Ya'ni Alloh qudrati oldida insonning naqadar ojiz ekani, hatto payg'ambarlar ham buni ko'rishga qodirmasligi anglashiladi. Shunday bo'lsada, ilm ahli hamisha tajalli izlashi, irfon hosil qilmog'i lozim. Irfon – bu Alloh sirlaridan kashf va ilhom vositasida ogoh bo'lish, ma'naviy ichki tajriba orqali erishiladigan bilim. Har ikkala shoir ham olim uchun mana shu xislatlar muhimligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Yassaviy va Ubaydiy hikmatlarida ham ilm ahlining o'ziga xos sifatlari, fazilatlarini tasvirlanib, insonning beshikdan to qabrgacha ilm izlashi lozimligi, olim yo orifmi, kim bo'lsada ilmiga amal qilib, ma'rifatga, irfonga erishmog'i, Haq zikrini mahkam tutib, xoksorlik bilan ilm yo'lida davom etishi, manman, johil va zolim olimlardan bo'lib qolmasligi uqtiriladi. Bu hikmatlar nafaqat o'z davri, balki bugungi zamon uchun ham ilm va ma'naviyat uyg'unligini targ'ib etuvchi muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'oni karim oyatlari mazmun-ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimai. Tarjimonlar A. Inoyatov, G'. Zikrillayev. Toshkent – 2022. – 688 bet.
2. A. Yassaviy. Umr yeldek o'taro. – Toshkent, 2020. – 400 bet.
3. M.F.Ko'prulu. Turk adabiyotida ilk mutasavviflar. Toshkent-2024. - 496 bet.
4. O. Avaznazarov. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lug'ati. Toshkent - 2025. – 458 bet.
5. Ubaydiy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar, so'zboshi muallifi M. H. Abdullayev, J. Abdullayev – Toshkent: 2020. – 444 bet.
6. Tanlangan hadislar. Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida. Toshkent - 2018. 44 bet.